

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI
MUHANDISLIK QURILISH INFRASTRUKTURASI FAKUL'YETI**

“Geodeziya va kadastr” kafedrasi

“Himoyaga ruxsat etildi”
MQIF dekani
dots. S.M. Narbaev
“ ” 2018 y.

5311500 – “Geodeziya, kartografiya va kadastr” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
darajasini olish uchun bajarilgan diplom loyihasi

TUSHUNTIRISH XATI

Diplom loyihasining mavzusi: “O’zbekiston Respublikasi hududida ekalogiya va
atrof muhitni muhofaza qilishni monitoring qilish maqsadida maxsus
geoma'lumotlar bazasini yaratish.”

Tushuntirish xati - bet
Chizmalar slayd shaklida
taqdim etiladi.

Loyiha muallifi 43b-14 GKK
Musulmonov Anvar Ro’ziboy o’g’li _____
Loyiha rahbari:
katta o‘qituvchi Avezboev O.S._____

“G va K” kafedrasi “ ” 2018 y. № bayonnomasi
bilan “himoyaga tavsiya etilgan”
kaf. mudiri _____ M.B.Xamidova

Toshkent 2018 y.

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI
MUXANDISLIK QURILISH INFRASTRUKTURASI FAKULTETI
“Geodeziya va kadastr” kafedrasи

Yo‘nalish: 5311500- “Geodeziya, kartografiya va kadastr”

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri _____
“___” **20** ___ yil.

DIPLOM LOYIHASI BO‘YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Musulmonov Anvar Ro’ziboy o’g’li

1. Diplom loyihasining mavzusi: “O’zbekiston Respublikasi hududida ekalogiya va atrof muhitni muhofaza qilishni monitoring qilish maqsadida maxsus geoma’lumotlar bazasini yaratish.”
2. Rektorning 16.12.2017 yil. 5/41 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.
2. Bitiruv ishini old himoyaga taqdim etish muddati _____.
- 3. Mavzu bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar ro‘yxati:**
 - 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 sentyabrdagi “Milliy geografik axborot tizimini yaratish investisiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2045 sonli qarori.
 2. T.X.Boltaev va boshqalar. Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari. O’quv qo’llanma. Tashkent. “Iqtisod-Moliya”. 2016y.
 3. Avezbaev S., AvezbaevO.S. Geoma’lumotlar bazasi va uning arxitekturasi. O’quv qo’llanma. Toshkent. “Iqtisod-Moliya”. 2016y.
 4. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI Press, 2010.

- 4. Diplom loyihasining maqsadi va hal qilinadigan masalalar:** O’zbekiston Respublikasi hududida ekologiya va atrof-muhitni qilish sohasida davlat kadastrini yuritish, shuningdek, yovvoyi hayvonlarni, yovvoyi o’simliklarni

ko'paytirish va saqlash pitomniklarini, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning davlat hisobini yuritish maqsadida mahsus geoma'lumotlar bazasini tuzish."

Unda quyidagi masalalar echilishi ko'zda tutilgan. Atrof muhitni muhofaza etish uchun umumiy tushinchalar, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mazmun mohiyati, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni yuritish tartibi, GAT texnologiyalarini o'rni va ahamiyati, Atrof muhitni muhofaza etish uchun ma'lumotlar bazasini yaratishda geografik axborot tizimlarining strukturasi, GAT ma'lumotlar bazasini yaratishda sodir bo'ladigan xatoliklarning oldini olish usullari, Ma'lumotlar bazasini boshqarishda geografik axborot tizimining o'rni, METH geoma'lumotlar bazasidagi fazoviy ob'yektlar sinflarini modellashtirish, Jadvallarni ulash va bog'lash, Ma'lumotlarni kartada aks ettirish usullari, GAT yordamida muammolar yechimini topish. Fazoviy tahlil jarayoni. kabi masalalarni yoritish ko'zda tutilgan.

5. Grafik qism materiallar ro'yxati:

1. METHlar chegaralarini shakl-tasviri.
2. METHlar kartasiga MB tasvirlash.
3. Geoma'lumotlar bazasini shakillantirish sxemasi.

6. Diplom loyihasini bajarish rejasi:

Nº	Bosqichlar nomi	Bajarish muddati	Bajarilganlik belgisi (rahbar imzosi)
1.	Ob'yekt joylashgan hudud tavsifi.		
2.	Geoaxborot tizimining me'yoriy va huquqiy asoslari.		
3.	METH geoma'lumotlar bazasini loyihalash.		
4.	METH geoma'lumotlar bazasini arcgis dasturi yordamida yaratish.		
5.	Diplom loyihasiining matn va grafik qismini rasmiylashtirish.		
6	Diplom loyihasi bo'yicha taqdimotni tayyorlash.		

Diplom loyihasi rahbari: Katta o'qituvchi Avezboev O.S.. _____

Topshiriqni bajarishga oldim _____ "___" 20 ___ yil

MUNDARIJA

KIRISH.

I BOB EKOLOGIK MAQSADLARDA MUHOFAZA ETILADIGAN HUDUDLAR MOHIYATI.

1.1.	Atrof muhitni muhofaza etish uchun umumiy tushinchalar	
1.2.	Ekologik maqsadlarda muhofaza etiladigan hududlar mazmun mohiyati.	
1.3.	Ekologik maqsadlarda alohida muhofaza etiladigan hududlar yuritish tartibi	

II BOB ATROF MUHITNI MUHOFAZA ETISH VA YURITISHDA UCHUN GAT MA'LUMOTLAR BAZASI XUSUSIYATLARI.

2.1.	GAT texnologiyalarini o'rni va ahamiyati	
2.2.	Atrof muhitni muhofaza etish uchun ma'lumotlar bazasini yaratishda geografik axborot tizimlarining strukturasi.	
2.3.	GAT ma'lumotlar bazasini yaratishda sodir bo'ladigan xatoliklarning oldini olish usullari.	
2.4.	Ma'lumotlar bazasini boshqarishda geografik axborot tizimining o'rni.	

III BOB MUXOFAZA ETILADIGANTABIY HUDUDLAR (METH) GEOMA'LUMOTLAR BAZASINI LOYIHALASH.

3.1.	METH geoma'lumotlar bazasidagi fazoviy ob'yektlar sinflarini modellashtirish	
3.2.	Jadvallarni ularash va bog'lash	
3.3.	Ma'lumotlarni kartada aks ettirish usullari	
3.4.	GAT yordamida muammolar yechimini topish. Fazoviy tahlil jarayoni	

IV BOBMehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi.

4.1.	METHlarni yurituvchi korxonalarida mehnat muhofazasining tutgan o'rni.	
4.2.	Sanitariya-gigiena qoidalari.	
	Xulosa	
	Foydalanilgan adabiyotlar	
	Ilovalar	

K I R I S H

Ekologik muammolar XXI asrning eng dolzarb muammolari bo‘lib qoldi. Insoniyat, hayvonot dunyosi va o‘simliklarning kundalik hayoti bevosita atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatiga bog‘liq. Ma’lumki, manzarali o‘simliklardan ko‘chalar, xiyobonlar, istirohat bog‘lari hamda hovlilarni ko‘kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi. Bunday o‘simliklar orasida daraxtlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat kislorod manbayi, balki, muhit mikroiqlimini mo‘tadillashtirishda asosiy o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston iqtisodiyotida ro‘y berayotgan tarmoq o‘zgarishlari tabiiy resurslardan foydalanish darajasi o‘z-o‘zidan atrof, tabiiy muhit ifloslanishi masalasini ham chuqurroq tahlil etishni taqozo etadi. Atrof-muhitga eng ko‘p ta’sir etuvchi sanoat tarmoqlariga metallurgiya majmualari, elektr energetikasi, yoqilg‘i va kimyo sanoati kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vaziriar Mahkamasining 2013-yil 27- maydag‘i 142-sonli «2013-2017-yilarda O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit muliofazasi bo‘yicha harakatlar Dasturi»ga asosan, 2013-2017-yillar davomida geografik axborot tizimlarini (GAT texnologiyalarini) qo’llagan holda atrof tabiiy muliit holati davlat monitoringining integratsiyalashgan axborot bazasini taslikil etisli rejulashtirilgan. Asosiy kutilayotgaii natijalarga muvofiq GAT texnologiyalarini tatbiq etish orqali atrof tabiiy muhit holati davlat monitoringining axborot bazasini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Shu məqsəd-sadlai uchun Davlat tabiatni muhofaza qilish qo’mitasi huzuridaci Respublika tabiatni muhofaza qilish jamg’armasi tomonidan 200,0 mln. so‘m moliyalashtirish mablag‘lari ajratilgan.

Jarayonlardan xoli bo‘la olmaydi. Shu boisdan ham xalqaio standartlarga mos keladigan axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalaridii zamonaviy axborot texnologiyaiarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishdajoriy etish liamda ulardan foydalanish, fuqarolaming axborotga bo‘lgan ehtiyojlariin yanada to‘liqroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kmsli uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish. davlat boshqaruvi organlan faoliyatida ochiqliknii ta’minlash,

marpkrKatimizda taraqqiyotning milliy xususiyaflarini inobatga^etgan holda bosqichma-bosqiili "Elektron hukumat" tizimiga crtish jamiyatimiz oldida turgan eny, dolzarb vazifalardan biridir.

Jahon hamjamiyati globallashuv va integratsiyalashuv asriga lldam qadarn qo'ynioqda. Darhaqiqat. insoniyat tarixida tamomila yiingi bo'lgan tez o'zgaruvchan jarayonlar hukmron bo'lgan davr Iwslilandi. Mazkur davr o'zining keng qamrovliligi, yoshlarning lit'lim-tarbiyasiga ta'sir ko'rsata olishi, axborot sohasida katta O'Bgarishlai boshlab berayotganligi bilan ajralib tm-adi. Mamlaka-nmiz ham xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi sifatida mazkur

Ushbu dastur atrof-muhit holatining kafolatlangan sifatli dara- jasiga erishish borasidagi chora-tadbirlar majmuyini amalga oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatdan foydalanish boshqaruvini takomillashtirish va samarali iqtisodiy usullarini tatbiq qilish. atrof-muhit ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiyot tar- moqlarini rivojlantirish, mamlakatning barqaror rivojlatiishiga, eko- logik ilm-fanni olg'a surishga hamda barqaror rivojlanish maqsad- laridagi ta'limni joriy qilish, ekologik bilimlarni keng targ'ib qilish, shuningdek, ekologik madaniyatni oshirishga yordam beradigan shart-sharoitlami yaratish maqsadida ishlab chiqilgan, Tizimiga o'tish jarayonida zamonaviy geoaxborot tizimlaridan unumli foydalanish

I BOB MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR MOHIYATI.

1.1 Atrof muhitni muhofaza etish uchun umumiyl tushinchalar

Konstitutsiyamizda belgilangan atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq qoidalar jamiyat hayotining barcha sohalariga izchil joriy etilayotgani aholi farovonligi va salomatligi, ekotizimlar va atrof-muhit barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘layotganini ta’kidladi. Mamlakatimizda mazkur sohadagi munosabatlarning huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, ular o‘ttizdan ziyod qonunlar bilan tartibga solinmoqda. Mazkur qonunlarda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning mazmun-mohiyati, tabiiy resurslarning huquqiy holati, ushbu sohada yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari belgilab qo‘yilgan. – Aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta’limni rivojlantirish, atrof-muhit barqarorligiga xavf solayotgan muammolarni bartaraf etish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda va qo‘mita tarkibida hududlarda o‘z bo‘linmalariga ega bo‘lgan tabiy sharoitni yaxshilash nazorat qilish inspeksiyasi tashkil etildi.

Davlat qo‘mitasining hududiy boshqarmalari huzurida shahar va tumanlarda o‘z filiallariga ega bo‘lgan «Toza hudud» davlat unitar korxonalari tashkil etiladi, bunda atrof muxitni yaxshilash va salbiy tasir ko’rsatuvch omillarni oldini olish uchun bajariladiga ishlarni ma’lumotlar bazasi yaratilgan bo‘lib shu asosda ishlar olib borilmoqda. Muxofaza etiladigan tabiiy hududlar O‘zbekiston hududida 1926 yil Jizzax viloyatida G’o’ralas tog'-archa qo’riqxonasining ta’sis etilishi bilan boshlanadi. Keyinchalik, ya’ni 1960 yilda mazkur qo’riqxona Zomin tog'-o'rmon davlat qo’riqxonasiga qayta nomланади. Mazkur qo’riqxonaning asosiy muhofaza ob’yektlari bo‘lib yuqori tog' archa tizimlari hisobланади bu obyektlarni hali ma’lumotlar bazasi yaratilgani yo’q faqatgina yovvoyi hayvonlar va o’simliklarni juda kam miqdordagi turlari hujjat shaklida kiritilgan . O’zbekiston Respublikasining Qizil Kitobi hamda Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro uyushmasiga kiritilgan, xususan, turkiston silovsini, ilvirs (tog' qoploni), qora laylak, burgut, oq boshli qumoy va boshqa fauna vakillari yashaydi. O’zbekiston hududida yana bir tabiiy

sharoitga salbiy ta'sir ko'rsatayo orol bo'yи mintaqasini yaxshilash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 29 avgustdagи 255-sonli qarori bilan "2015-2018 yillarda Orolbo'yi mintaqasini tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, Orol halokatining oqibatlarini yengillashtirish borasidagi chora-tadbirlar Kompleks dasturi" qabul qilindi. Mazkur hujjat bilan Orolbo'yi hududida yangi qo'riqxonalar, tabiat bog'larini tashkil etish ko'zda tutilgan. yaqin istiqbolda Orolbo'yi tabiat boyliklarini muhofaza qilish bo'yicha 5 ta tabiat klasterlarini yaratish rejalashtirilgan. Bular umumiy maydoni 1,42 mln.gektar bo'lgan "Janubiy Ustyurt" milliy bog'i, 1,1 mln.gektar bo'lgan "Markaziy Qizilqum" milliy bog'i, "Orolbo'yi buyurtmaxonalari" tabiat kompleksi, "Kuljuktau" buyurtmaxonalaridir. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sifatida O'zbekistonda ayni vaqtida 8 ta davlat qo'riqxonalar, 2 ta milliy bog', 1 ta ekomarkaz, 1 ta biosfera rezervati, 10 ta davlat buyurtmaxonalar, 5 ta tabiat yodgorligi hududlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu hududlarda milliy hamda xalqaro "Qizil kitob"larga kiritilgan, yo'qolish ehtimoli bo'lgan nabodot va hayvonot turlari davlat muhofazasiga olingan.

O'zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining «2013 — 2017 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi to'g'risida» 2013 yil 27 maydagi 142-sun qaroriga muvofiq hamda Ustyurt (platosining) tekisligining noyob biologik xilma-xilligini ishonzhli muhofaza qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi va ma'lumotlar bazasini shakillantirib boshlandi.

Mazkur tizimda davlat tabiat qo'riqxonalar asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat qo'riqxonalar hududlari qat'iy muhofaza rejimi ostida bo'lib, unda yil davomida yovvoyi tabiatni muhofaza qilish borasida kuzatuvlar olib boriladi. Qo'riqxonalarning asosiy maqsadi qimmatli tabiiy ob'yeqtlar, landshaftlar, noyob va qimmatli o'simliklar hamda hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolishdir. Bugungi kunda qo'riqxonalarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar aholi o'rtasida muhofaza etiladigan yovvoyi tabiat boyliklarining muhimligini anglash, Yer yuzidagi hayotni saqlashda muhofaza

etiladigan tabiiy hududlarning o'rni bilan bog'liq keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga da'vat etilgan.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda O'zbekistonda bioxilma-xillikni saqlash hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish sohasida qator xalqaro loyihalar amalga oshirilayotganligi e'tirof etildi. Bunday loyihalarga "Qo'riqxonalar misolida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy tizimi barqarorligini ta'minlash", "O'zbekiston neft va gaz tarmog'iga bioxilma-xillikni saqlash tamoyillarini joriy qilish", "2011-2020 yillarda O'zbekistonda Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaning Strategik rejasini amalga oshirishda qo'llab-quvvatlash uchun biologik xilma-xillik sohasida milliy rejalashtirish" va boshqalar kiradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi tadbirlar sababli mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, maxsus vakolatli davlat organlari, jamoatchilik tashkilotlarining hamkorlikdagi faoliyatları respublikaning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining yagona o'zaro bog'liqlik tizimini tashkil etishi lozim.

Ta'kidlanganidek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni nazorat qilish, muhofaza qilish va foydalanish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida 2014 yilda qator normativ-huquqiy hujjatlarga, xususan, biosfera rezervatlarini muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ro'yxatiga kiritishni ko'zda tutuvchi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunlarga, shuningdek, o'simlik va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish borasidagi chora-tadbirlarni takomillashtirishni o'z ichiga oluvchi "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" Qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

1.2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mazmun mohiyati.

Fan texnika sohasida ro'y bergan inqilobiy o'zgarishlar va sanoat va transportning tez o'sishi, aholining ko'payib borishi, shaharlarning kengaya borishi,

shaharlar ta'sirining orta borishi, qishloq xo'jaligida komyolashtirishning kuchli ta'siri va boshqa hollar, bir tomondan tabiiy resurslardan ko'proq foydalanishga olib kelsa, ikkinchi tomondan atrof muhitga salbiy ta'sirlarini ortishiga olib keladi. Ammo modellashtirish yangi rivojlanayotgan uslublardan hisoblanadi. Natijada tabiiy resurslarning miqdori va sifatiga putur eta boshladи. Bunday munosabatni bartaraf etish hozirgi kunda ekologiya oldiga qo'yilgan birdan-bir dolzarb muammodir. Bu muhim masalani hal etishning amaliy va ilmiy asosi tabiatni muhofaza qilishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning farmoniga muvofiq 2017-yilning 22-apreldidan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil etildi. Davlat ekologiya qo'mitasi quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi, jumladan:

- - ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvi;
- - atrof-muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va alohida obyektlar muhofaza qilinishini, ekologik sharoitning sog'lomlashtirilishini ta'minlash;
- - chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka riosa etilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorlikda maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishslash va ko'mish borasida ta'sirchan tizimni tashkil etish;
- - yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka riosa etilishi ustidan davlat ekologik nazoratni o'rnatish;
- - ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish, tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda idoralalararo hamkorlikni ta'minlash;
- - ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini, shuningdek, yovvoyi hayvonlarni, yovvoyi o'simliklarni ko'paytirish va saqlash pitomniklarini, zoologiya va botanika kolleksiylarining davlat hisobini yuritish;
- - ekologik tarbiya, targ'ibot va ta'limni, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish;
- - atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquqbazarliklar bo'yicha profilaktika o'tkazish;

- - ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalarida jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari bilan mustahkam hamkorlikni, qulay atrof-muhitga bo'lgan fuqarolar huquqini ta'minlash.

Tabiyatni muhofaza qilish orqali tabiiy resurslarning antropogen, ularning murakkab o'zaro aloqalarini o'rganiladi. Bu dinamikaning inson uchun ahamiyatini aniqlaydi, tabiiy boyliklardan ratsional foydalanishni asoslab beradi. Hozirgi avlod va kelajak avlod uchun muhim bo'lgan tabiiy resusrlarning miqdor va sifat xususiyatlarini - saqlash va tiklash usullarini ishlab chiqarish lozim bo'ladi.

Tabiyatni muhofaza qilish fani kompleks fan bo'lib, tabiiy fanlar ijtimoiy-iqtisodiy va texnika fanlari negizida rivojlanadi. Tabiyatni muhofaza qilish termini birinchi marta 1913 yilda Tabiyatni muhofaza qilishga bagishlangan 1-xalqaro s'ezddan song olimlar tomonidan ishlatila boshlandi. Inson butun mehnat faoliyati davomida tabiat bagrida yashab, unga ta'sir etadi. Va ozi uchun zarur bo'lgan barcha ne'matlarni, oziq-ovqat, kiyim-kechak, energiya va mineral ashyolar va hakozolarni o'z mehnat faoliyati natijasida tabiatdan foyda oladi va sarflaydi. Yer yuzida har yili 4 mlyard tonnadan ortiq neft, gaz 2 mlyard tonnadan ortiq komir yoqilib, 20 mlyard tonna har xil ma'danlar qazib olinadi. uning chang tozonlari, zaharli gazlar, tutun - qurumlari atrofga chiqib uni ifloslantirmoqda. Bularning hammasi insonning tabiatga ko'rsatgan ta'sirining natijasidir. tabiatdan to'g'ri foydalanish, tabiat qonunlari bilan hisoblashish va unga rioya qilish shartdir. Aks holda inson qator salbiy oqibatlarga duch keladi. Bugungi kunda shunday oqibatlarga duch kelmoqdamiz ham. Masalan, bundan 3000 yil ilgari yer sharidagi quriqlik yuzasi umumiy maydonining 47 % ni o'rmonlar tashkil qilgan edi. Insonning o'rmonlardan rejasiz ravishda foydalanishi natijasida hozir uning miqdori 27% ga tushib qoldi. Bu esa 2 mlyardga yaqin unumdar yerning Eroziyaga uchgashiga sabab bo'ldi. Bu korsatgich butun quriqlik maydonining 15% ni tashkil qiladi. Faqatgina ularni izchillik bilan hal qilmoq darkordir. Ekologiya fan sifatida biologiyaning sohalari fiziologiya, genetika, biofizikaga asoslanadi. Shuningdek, biologiyadan tashqari fizika, ximiya, geologiya, geografiya, matematika va boshqa fanlar bilan bog'langan. Ekologik tadqiqotlarning samarali olib borilishi natijasida «Geografik ekologiya»,

«Kimyoviy ekologiya», «matematik ekologiya» va boshqa tushunchalar joriy qilindiki, ular ekologiyaning naqadar rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Hozirda inson o'z yashash doirasini keskin kengaytirgan, uning qadami nafaqat yer tevarak atrofidagi bo'shliqlarga, balki uzoq fazo bo'shliqlariga ham etib boradi. Bu holat butunlay yangi muammolarni keltirib chiqaradiki, ular tibbiyot ekologiyasi bilan yaqindan bog'liq bo'lган antropo-ekologiyasini o'rganadi. Inson va mashinalarning o'zaro munosabatlari to'g'risidagi fan Ergonomika nomini olgan va mehnat muhofazasining bir qismi hisoblanadi. Tabiyatni muhofaza qilish fanining ham boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi mavjud. Hozirgi kunda tabiyatni muhofaza qilishning ayrim muammolari bilan geografik, biologik, tuproqshunoslik kabi qadimiy fanlar, shuningdek ulardan ajralib chiqqan biogeoximiya, gidrobiologiya, geogigiena kabi yangi sohalar ham shug'ullanmoqda.

Insonda tevarak atrofdagi muhitni saqlashga bo'lган extiyoj qadim zamonlarda vujudga kelgan. Shuning uchun ham Tabiyatni muhofaza qilish tarixi insoniyat tarixining ilk davrlariga to"g'ri keladi. Masalan: Foydali hayvonlarni ko'plab qirib yuborish ko'pgina xalqlarda o'lim jazosiga sabab bo'lган, bu esa Tabiyatni muhofaza qilish tarixining boshlanishi edi. Qimmatli hayvonlar ov qilinadigan va eyishga yaroqli hayvonlar, yovvoyi hayvonlar, o'simliklar o'sadigan joylar muqaddas deb e'lon qilinib, bu yerda ov qilish va o'simliklarni terish ma'n etilgan. Quldarlik jamiyatida o'rmon va daraxtlarni ko'riqlash haqida qonunlar vujudga kela boshlagan. Qadimgi Misrda uy hayvonlarini o'ldirish zararli va gunoh hisoblanadi. Ma'n etilgan joylarda baliq tutish, tangri yerlari ya'ni ko'riqxonalardan hayvonlarni haydab ketish ham gunoh hisoblan-gan. Feodalizm davrida tabiatni muhofaza qilish konkret shakl oladi. O'z yerlarida ov hayvonlari va boshqa hayvonlarni saqlashdan manfaatdor feodallar ularni qo'riqlash uchun qonunlar chiqara boshladi. qonunni buzgan kishi jazolanar edi. Hozirgi kunga kelib ham Tabiyatni muhofaza qilish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan: Tabiyatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotlarining tuzulganligi, ko'plab qoriqxona, buyurtmaxonalarining tashkil etilganligi Tabiyatni muhofaza qilish bo'yicha qator qonunlarning joriy etilishi fikrimizningyaqqol dalidir.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini kelgusida rivojlantirish uchun O'zbekistonda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarmog'ini tashkil etish bo'yicha Dastur" loyihasi tayyorlangan bo'lib, uning doirasida mazkur hududlarni 2,3 mln.gektardan 8,1 mln.gektarga (O'zbekiston hududining 17%ga yaqini) kengaytirish, yangi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, mavjudlarini kengaytirish va boshqa ko'plab tadbirlar rejalashtirilgan. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yarmidan ko'pini cho'l ekotizimlari (53%), qolgan qismi (39%) tog' ekotizimlari, 6%ga yaqin qismi suv oldi ekotizimlari va 1%i to'qaylarni tashkil etadi. Shu bilan birga qo'riqxonalar va milliy bog'larning deyarli barcha maydoni tog' ekotizimlariga to'g'ri keladi.

1.3. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni yuritish tartibi.

O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" gi Qonunining 5-moddasiga muvofiq muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadi va rejimiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi:



- davlat qo'riqxonalari;
- majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari;
- davlat milliy tabiat bog'lari;
- tarixiy yodgorliklar;
- ayrim tabiiy ob'yektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar;
- muhofaza etiladigan landshaftlar;
- ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar.

Qo'riqxona nima - bu akvatoriya yoki territoriya, xo'jalikdan butunlay ajratiigan yer maydoni bo'lib hisoblanadi. Qo'riqxonalar- tabiatning ilmiy laboratoriyalari bo'lib, u erda tabiat rivojlanish qonuniyatlarining murakkab tekshirishlari va kuzatishlari o'tqaziladi.

O'zbekiston Respublikasida jami 8 ta qo'riqxona (Toshkent, Jizzax, Samarqand, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo viloyatlarida 1 tadan va Qashqdaryo viloyatida 2 ta) mavjud bo'lib, ularning nomi, maydoni va toifasi to'g'risidagi ma'lumotlar 1.1-jadvalda keltirilgan. Qo'riqxonalarda ayrim hayvon zotlari va o'simlik turlari o'r ganiladi, hamda bu yerda insonning har qanday ta'siri umuman ta'qiqlanadi.

1.1-jadval

Davlat qo'riqxonalari			
METH nomi	METH turi	Umumiy maydoni (ga)	METH toifasi
Hisor davlat qo'riqxonasi	davlat qo'riqxonasi	80986	1 (birinchi)
Kitab davlat geologik qo'riqxonasi	davlat qo'riqxonasi	3938	1 (birinchi)
Zomin davlat qo'riqxonasi	davlat qo'riqxonasi	26840	1 (birinchi)
Qizilkum davlat qo'riqxonasi	davlat qo'riqxonasi	1467	1 (birinchi)
Nurota davlat qo'riqxonasi	davlat qo'riqxonasi	17752	1 (birinchi)
Surxon davlat qo'riqxonasi	davlat qo'riqxonasi	23802	1 (birinchi)
CHotqol davlat biosfera qo'riqxonasi	davlat qo'riqxonasi	35724	1 (birinchi)
Zarafshan davlat qo'riqxonasi	davlat qo'riqxonasi	2426	1 (birinchi)

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari Respublikamiz territoriyasida bir qancha Qo'riqxonalar bor. Ulardan tashqari milliy bog'larimiz, tabiiy yodgorliklarimiz ham bor. Har qaysi Qo'riqxonada ma'lum bir o'simlik turlari va hayvon zotlari saqlanadi, ularning yashashi, ko'payishi, iiziologiyasi, tabiat o'r ganiladi. Qo'riqxonalar, Qizil Kitobning asosiy va muhim vazifalari tabiatimizni asrashimizga qaratilgandir.

Davlat milliy tabiat bog'lari tabiatni muhofaza qilish, rekreatsion, ma'rifiy, ilmiy va madaniy maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan hamda alohida ekologik tarixiy va estetik ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy ob'ektlarini saqlab qolish maqsadida tashkil etiladi. Milliy bog'larda yoqolib borayotga o'simliklar, daraxtlar turlari saqlanadi va ushbu joylardan daraxt va o'simliklarni qirqish va nobud qilish mumkin emas. O'zbekiston hududida 3 ta milliy bog' mavjud va ular Toshkent hamda Jizzax viloyatlarida joylashgan (1.3-jadval).

1.3-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat milliy tabiat bog'lari

Davlat milliy tabiyat bog'i			
METH nomi	Umumiy maydoni (ga)	METH turi	METH toifasi
Ugom CHotqol Davlat miliy tabiat bog'i	34055	milliy tabiat bog'i	3 (uchinchi)
Do'rmon milliy bog'i	32.4	milliy tabiat bog'i	3 (uchinchi)
Zomin milliy tabiat bog'i	23894	milliy tabiat bog'i	3 (uchinchi)



Tarixiy yodgorligini saqlash muhofaza qilish lozim chunki bular tarixda tabiyatga zarar yetkazmasdan tabiyatga uygu'n holda qad ko'targan bizning hududimizda mavjud tarixiy yodgorliklar quyidagilar.

1.4-jadval

Davlat tarixiy yodgorliklari			
METH nomi	Umumiy maydoni (ga)	METH turi	METH toifasi
Varaxsho tarixiy yodgorligi	7	davlat tarixiy yodgorlik	4 (to'rtinch)
Vardanzi tarixiy yodgorligi	320	davlat tarixiy yodgorlik	4 (to'rtinch)
Mingbulok tarixiy yodgorligi	1000	davlat tarixiy yodgorlik	4 (to'rtinch)
Paykent tarixiy yodgorligi	30	davlat tarixiy yodgorlik	4 (to'rtinch)
CHust tarixiy yodgorligi	96	davlat tarixiy yodgorlik	4 (to'rtinch)
Yaz'yavan tarixiy yodgorligi	1883.4	davlat tarixiy yodgorlik	4 (to'rtinch)

Davlat buyurtmaxonalari har joyda ham o'sish sharoitiga moslash olmaydigan va o'stirish qiyin bo'lgan dov daraxt o'simliklarni ekish va kerakli joylarga yetkazish binlan shug'llanadi va ushbu buyurtmaxonalarda o'simliklar tabiy holda yetishtiriladi. O'zbekiston hududida 13 ta shunday buyurtmaxonalar mavjud bo'lib, ularning ro'yhati quyidagi 1.5. – jadvalda keltirilgan.

1.5 – jadval

Davlat buyurtmaxonalari

METH nomi	METH toifasi	Umumiy maydoni (ga)
Xadicha tabiiy suv xavzasi davlat buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	11300
Kumsulton tabiiy suv xavzasi davlat buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	4900
"Karnabchul's" davlat buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	25000
Nurobod davlat buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	40000
Ko'shrobot davlat buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	16500
Mubarek davlat buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	264469
Arnasoy davlat ornitologik buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	63300
Qara Qir davlat buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	30000
Aktau davlat buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	15420
Sudoch'e davlat buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	50000
Dengizkul's davlat buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	50000
Omonkuton buyurtmaxonasi	5 (beshinchi)	1515
Jayron Eko markazi	5 (beshinchi)	16470

Biosfera rezervati biologik xilma-xilligini saqlashni, tabiatdan barqaror foydalanishni va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni, madaniy boyliklarni muhofaza qilishni ta'minlashga mo'ljallangan yer usti va suv ekologik tizimlarini o'z ichiga oladigan, muhofaza qilinadigan tabiiy hudud hisoblanadi. Biosfera rezervati o'z faoliyatini hududidagi boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining yer to'g'risidagi, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risidagi, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi, o'rmon to'g'risidagi, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga, muvofiq amalga oshiradi.



etiladigan tabiiy hudud hisoblanadi. Uning maqsadi alohida ekologik qimmatga ega

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi
(keyingi o'rnlarda majmua buyurtma qo'riqxonasi deb ataladi) umumdavlat ahamiyati molik muhofaza

bo'lgan tabiiy ob'ektlar va majmualarni o'z hududida asl tabiiy holatda saqlashdan iborat. Majmua buyurtma qo'riqxonasining yerlari tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar jumlasiga kiradi. Yer uchastkalari va boshqa tabiiy ob'ektlar majmua buyurtma qo'riqxonasiga belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan doimiy foydalanish uchun ajratib beriladi. Majmua buyurtma qo'riqxonasini tashkil qilish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.

1.6 – jadval

Rezervat va buyurtmaxonalar				
METH nomi	METH turi	METH toifasi	O'rnatshgan joyi	Umumiyl maydoni ga
Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati	davlat biosfera rezervati	8 (saqqizinch)	Karakalpokston Respublikasi, Beruni va Kegeyli tumanlari	11568
Saygachiyy davlat landshaft buyurtmaxonasi	davlat landshaft buyurtmaxonasi	2 (ikkinchi)	Karakalpokiston Respublikasi, Kungrat tumani	628300

Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi kamyob va yo'qolib ketish xavfida bo'lган o'simlik va hayvon turlarining ro'yxatini tuzish g'oyasini 1948 yilda amalga oshirishga kirishdi. Turlarni saqlab qolish bo'yicha maxsus xalqaro komissiya tuzilib, 1966 yildan boshlab boshqa tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda xalqaro Qizil kitobning dunyo va alohida mintaqalar florasiga bag'ishlangan nashrlar chop etila boshlandi, o'sha davrda ma'lum bir manoda elektronlashmagan bo'lsada GAT ishlatilgan bunga misol tariqasida "Qizil kitobni" olishimiz mumkin ushbu kitobda yoqolib borayotga hayvon, o'simlik turlarini kiritib va bulartni muhofaza qilish chora tadbirdari ko'rilgan hozirgi vaqtga kelib bu sohani yanada rivojlantirish maqsadida va vaqtini tejash uchun turli kompyuter dasturlari ishlab chiqilmoqda masalan (Arc Gis).

O'zbekistonning noyob va kamayib borayotgan o'simlik va hayvonlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar 1974 yil ta'sis etilgan Qizil kitobda o'z aksini topgan. Unga kiritiladigan o'simlik va hayvon turlari Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi taklif etgan tasnifga binoan 4 guruhga ajratiladi: 1) yo'qolgan yoki

yo'qolish arafasida turgan (jiddiy muhofaza talab etuvchi) turlar; 2) yo'qolib borayotgan (areali va soni kun sayin kamayib borayotgan, maxsus muhofazaga muhtoj) turlar; 3) kamyob, bevosita yo'qolish xavfi bo'lmasada, kichik maydonlarda kamdankam uchraydigan (muhofazaga muhtoj) turlar; 4) muayyan vaqg davomida soni va tarqalgan maydonlar tabiiy sabablarga qo'ra yoki inson ta'sirida qisqarib borayotgan (sonini nazorat qilib turish talab qilinadigan) turlar. Qizil kitobga, unga kirgan turlar maqomining o'zgarishi, maxsus muhofaza choralari tufayli ba'zi turlar sonining tiklanishi, aksincha, yashash sharoitining o'zgarishi va boshqalar omillar ta'sirida sonining kamayishi natijasida boshqa toifaga o'tkazilishini yoritish maqsadida qayta nashr etiladi. Qizil kitobning so'nggi nashriga sut emizuvchilarning — 24, qushlarning — 51, sudralib yuruvchilarning — 16, baliqlarning — 18, halqali chuvalchanglarning — 3, mollyuskalarning — 15, bo'g'imoyoqlilarning — 62 turi va kenja turi kiritilgan.

O'zbekiston faunasi va florasing ba'zi turlari Xalqaro Qizil kitobda ham o'z aksini topgan. Unda har bir tur uchun alohida sahifa ajratilgan bo'lib, unda mazkur o'simlik yoki hayvon turining o'zbekcha, ruscha, lotincha (ilmiy) nomlari, ularning sistematik o'rni, qisqacha morfologik tavsifi, tarqalishi, yashash muhiti, tabiatdagi soni, ko'payishi, areali va sonining o'zgarishi sabablari, muhofaza qilish choralari va boshqalar bayon etilgan. Qizil kitobga kiritilgan turlar davlat qonuni asosida muhofaza qilinadi; uni buzgan yuridik va jismoniy shaxslar qonunga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

II BOB ATROF MUHITNI MUHOFAZA ETISH VA YURITISHDA UCHUN GAT MA'LUMOTLAR BAZASI XUSUSIYATLARI.

2.1 GAT texnologiyalarini o'rni va ahamiyati.

Ma'lumotlarning ko'plab turlari vaqt o'tishi bilan tez-tez o'zgarib turishi, oddiy usulda tuzilgan qog'ozli kartadan foydalanishni ancha qiyinlashtirib yubormoqda. Axborotlarni tezlik bilan olishni, ularning dolzarbligini saqlashni bugungi kunda faqatgina avtomatlashtirilgan tizim kafolatlashi mumkin.

GAT quyidagilarni ta'minlashi zarur:

- digitayzer, skaner, raqamli fotokamera, "sichqoncha" yordamida kartografik axborotlarni kiritish, boshqa tizimlar fayllaridan foydalanish; rastrli tasvirlarni yarim avtomatik va avtomatik yo'llar bilan raqamlash;
- kartografik ma'lumotlar bazasini boshqarish (ma'lumotlar bazasining arxitekturasini shakllantirish, kartografik obyektlar va faktografik ma'lumotlar bazalari jadvallari qatorlari orasidagi aloqalarni taxlil qilish, ma'lumotlarni yangilash, qidirish, tanlash), vektor va rastr axborot qatlamlarining, uch o'lchovli obyektlar va yuzali qatlamlarning turli tizimlarda ishlashini ta'minlash;
- tizimning ichki dasturlash tilining mavjudligi foydalanuvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:
 - tizim faoliyati ichida hisoblash dasturlari va boshqa foydalanuvchilar uchun ilovalarini yaratish; ma'lumotlar qatlaming yangi turlarini yaratish, boshqa ma'lumotlar bazasiga va GATlariga oson kirishni ta'minlash, foydalanish interfeysi tizimiga o'zgartirish va to'ldirishlar kiritish;
 - koordinatalar tizimini o'zgartirish hamda ellipsoid va sharda kartografik loyihalarni bir mashtabga keltirish;
 - uzunlik, yuza, perimetrlarni hisoblash, obyektni boshqa tavsiflarini o'z ichiga oluvchi metrik muolajalarni bajarish;
 - ma'lum shart-sharoitlarni qanoatlantiruvchi uzoqlikda yuzalar qurish, yaqin qo'shni poligonlarni qidirish;

- ko`pgina kartografik obyektlar ustidan muolajalarni “kesish, birlashtirish, o`chirish”ni olib borish;
- tarmoqlardan muolajalar, optimal marshrutlarni tanlash;
- tayanch nuqtalarning boshqariladigan va boshqarilmaydigan tarmog’ida yuzalarni qurish va ularni taxlil qilish;
- ma`lumotlarni takrorlamay va har bir alohida xududning yaxlitligini buzmaydigan, shuning bilan bir vaqtning o`zida bitta fazoviy koordinatalarida ko`pgina xududlar, har biri o`zining ichki koordinatalar tizimiga ega bo`lishi, kelishilgan ishni bajarish imkoniga ega bo`lgan virtual birikish rejimida kartografik ma`lumotlar bilan ishslash;
- yirik masshtabda tasvirlangan kartografik obyektdan yangi xududga o`tishga imkon beruvchi xududlarning bir-birini ichiga ko`p marta kiritiladigan ma`lumotlar bazasi qurilishini arxitekturalari;
- mos dastruriy ta`minot mavjud bo`lgan raqamli fotogrammetriya va stereotasvirlarga RS da ishlov berish usullaridan foydalanish;
- tushuntirish matnlari, chizma elementlari va boshqalar bo`lgan oq-qora va rangli kartalar, shaklni bezatish, montaj qilish, qirqim-kartalar va “darchalar”ni yaratishdan iborat hisobot shakllarni generalizatsiya qilish;
- chizma va matnli ma`lumotlarni matritsali, oqimli, lazerli printerlarga, plotterlarga, fayllarga hamda boshqa tizimlarga eksport qilib chiqarish, jumladan, ma`lumotlar formatlarini “konvertatsiya” qilish imkoniyatlariga ega bo`lishi kerak.

Zamonaviy GAT – bu ko`p miqdordagi grafik va mavzuli ma`lumotlar bazasiga ega bo`lgan, baza asosida ish bajarish imkoniyatiga ega modelli va hisobli funktsiyalar bilan birlashgan, fazoviy ma`lumotlarni kartografik shaklga aylantirish, turli qarorlarni qabul qilish va monitoring ishlarini amalga oshiradigan avtomatlashgan tizim, deb qaraladi.

O'zbekistonda geografik axborot tizimini amalga oshirish bo'yicha qonun-qoidalar aynan geografik axborot tizimi uchun ishlab chiqilmagan bo'lsada, milliy axborot kommunikatsiya tizimini shakllantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash, elektron hukumat tizimini yaratish, atrof-muhit to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ko'chmas mulkni ro'yxatga olish, davlat kadastrlari to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunlar milliy geografik axborot tizimini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qila oladi.

O'zbekistonda geografik axborot tizimi quyidagi qonunlar va me'yoriy hujjatlar bilan uzviy bog'liq:

- "Geodeziya va kartografiya to'g'risida"gi qonun (1997).
- "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi qonun (2000).
- "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun (2003).
- "Elektron hujjatlar aylanishi to'g'risidagi qonun (2004) va bir qator boshqa qonunlar.
- AKT va kadastr (jumladan, davlat axborot tizimlarini va elektron hukumatni yaratish) sohasiga oid qariyb 20 ta hukumat qarorlari.
- Ko'p sonli idoraviy-me'yoriy hujjatlar.

O'zbekistonda milliy geografik axborot tizimini yaratish, deganda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish hududlari, iqtisodiyot tarmoqlarini va ijtimoiy sohani kompleks rivojlantirish borasida boshqaruv qarorlari ishlab chiqish va bunga ko'maklashish uchun O'zbekiston Respublikasining Milliy geografik axborot tizimini (MGAT) ishlab chiqish va yaratish nazarda tutiladi.

Ular yordamida xududning yoki biror joyning raqamli tasvirini olish va keyinchalik uni to'g'ridan-to'g'ri kompyuterga kiritish mumkinligi nafaqat rasmlarga kimyoviy ishlov berish, hatto skanirlash bosqichida tasvirni raqamli shaklga o'tkazish jarayonlari chetlab o'tilmoqda.

2.2 Atrof muhitni muhofaza etish uchun ma'lumotlar bazasini yaratishda geografik axborot tizimlarining strukturasi.

Geografik axborot tizimi keyingi vaqtarda global, regional milliy va lokal, mahalliy miqyosda Ona sayyoramiz – Yer haqidagi xar xil ma'lumotlarni qamragan holda barcha sohada keng darajani egallagan shu bilan birga atrof muxitni muxofaza qilish sohasida ham ishlatilmoqda.

O'zbekistonda 1980-yilning oxirlariga kelib ekologik muammolar shu qadar keskinlashib ketdiki, respublika hukumati yangi davlat tuzilmasini - O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasini tashkil etdi.

Shu tariqa, respublika hukumatining 1988-yil aprel oyidagi maxsus qarori bilan atrof-muhit holati va muhofazasi yuzasidan nazorat bo'yicha davlat organi tashkil etildi.

Qator vazirlik va idoralar o'zlarining atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi tuzilmaviy bo'limlarining bir qismini Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tasarrufiga topshirdilar. Xususan, respublikaning Suv xo'jaligi vazirligi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tasarrufiga Suv resurslarini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish boshqarmasini, O'rmonchilik davlat qo'mitasi O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish boshqarmasini (1991-yil 1-apreldan Davlatbionazorati), Qishloq xo'jaligi vazirligi Yer resurslarini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish boshqarmasini, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Boshgidromet Atmosfera havosini muhofaza qilish boshqarmasini topshirgan.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tuzilmaviy jihatdan 6 ta boshqarma va 1 ta bo'limdan tashkil topgan edi - bu Suv resurslarini muhofaza qilish va oqilona foydalanish boshqarmasi, Atmosfera havosini muhofaza qilish boshqarmasi, Yer resurslarini muhofaza qilish va oqilona foydalanish boshqarmasi, O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish boshqarmasi (Davlatbionazorati), Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti va uni tashkil qilish boshqarmasi, Ilmiy-texnik taraqqiyot va tashviqot boshqarmasi, shuningdek, huquqiy bo'lim. Dastlabki to'rtta boshqarma inspeksion boshqarma hisoblanadi, ya'ni ular respublikaning ishlab chiqarish ob'yektlarida tabiatni muhofaza qilish qonunchilikiga rioya qilish yuzasidan nazoratni amalga oshiradilar

Bundan tashqari, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tarkibiga qayta tashkil etilgan Analistik nazoratga ixtisoslashgan davlat inspeksiysi va "SuvGEO" ilmiy tadqiqot instituti kirdi. Hukumatning 1988-yil aprel oyidagi maxsus qarori bilan respublikada atrof-muhit holati va muhofazasi ustidan nazorat bo'yicha davlat organi va uning viloyat, tuman va Toshkent shahridagi tuzilmaviy bo'limlari tashkil etildi.

1990-yil 10-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi. 1992 yil dekabrda mustaqil O'zbekiston Respublikasi Parlamenti - Oliy Majlisning birinchilardan bo'lib qabul qilgan - "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonuni bo'ldi. Mazkur ikki asosiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining huquqiy maqomini aniqlab berdi hamda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik bazasining shakllanishiga debocha bo'ldi.

Geografik axborotlar tizimini yaratish va yuritish uchun geoaxborotlar tizimini shakllantirishda dunyoda va jumladan, O'zbekistonda eng ko'p ArcGIS dasturidan foydalanib, davlat kadastrilari malumotlar bazasini yaratish maqsadida samarali qo'llanilyapti.



1-shakl. Geografik axborotlar tizimining strukturasi

ArcGIS - to'laqonli geografik axborotlar tizimini yaratish uchun dasturiy mahsulotlarning integrallangan to'plamidir. Ushbu dasturiy ta'minot Atrof muhit tizimlari tadqiqot instituti (ESRI) tomonidan yaratilgan. Kompaniya geografik axborotlar tizimi kompyuter dasturlari ta'minoti yo'nalishi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Eng zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida yaratilgan ArcGIS dasturiy mahsulotlari barcha ochiq standartlarga muvofiq keladi, bu esa ulardan ko'pgina quyidagi amaliy sohalarda va ishlarni tashkil etishning turli darajalarida (individual, server va mobil GATlari) foydalanish imkoniyatini beradi: yer kadastro, ko'chmas mulk ob'ektlarini texnik ro'yxatga olish, muhandislik tarmoqlari, favqulodda vaziyatlar, mudofa va xavfsizlikni saqlash, neft va gaz, transport, o'rmon xo'jaligi, SUV resurslaridan foydalanish, geodeziya, kartografiya, qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, ta'lim va boshqa sohalar.

Masalan: muhofaza etiladigan tabbiy hududlar chegaralarini ko'rsatishda va yildan yilga maydonni kengayishi yoki aksincha qisqarishlarini kuzatib borishda hamda METH lardagi hayvon va o'simliklar turi va sonini kamxarajat shakilda kuzatish va boshqalardir.

Insoniyat hayotida kompyuterlarning o'rni o'sib borib, birinchi darajaga raqamli axborot texnologiyalari chiqdi. Axborot iborasi GATda harf, raqam (son) yoki tasvir shakli tushuniladi. Barcha uslublar, texnikalar, amallar, vositalar, tizimlar, nazariyalar, yo'nalishlar va h.k. axborotni yig'ish, qayta ishlash va foydalanishga qaratilgan bo'lib, ular birgalikda axborot texnologiyalari deyiladi.

Bugungi kunda foydalanishi jihatidan GATga teng keladigan tizim yo'q, chunki uni bilimlarning barcha sohasida qo'llash mumkin. GAT fazoviy obyekt haqida raqamli ko'rinishli (rastr, vektor va h.k.) ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, mavjud obyektlarning raqamli tasviri, joyning raqamli modelidir.

Fazoviy obyektlar sifatida biror bir fazoviy nuqtaga bog'langan joy obyektlari va hodisalar tushuniladi, ya'ni bu obyektlarning boshqa obyektlarga nisbatan joylashgan o'rni, shakli, o'lchamlari ahamiyat kasb etadi. Fazoviy ma'lumotlar esa obyektlarning fazoda va boshqa obyektlarga nisbatan joylashishi va geometriyasini ifodalovchi ma'lumotlar hisoblanadi.

To'plangan va qayta ishlangan ma'lumotlarni ko'rib chiqish asosida qanday ma'lumotlar foydalanishga tayyor, qaysi birlarini qo'shimcha qayta ishlash talab qilinishi aniqlanadi.


GAT maqsadiga ko'ra - ko'p maqsadli, axborot-ma'lumotnomali, monitoring va inventarizatsionli, tadqiqotli, boshqaruqli, o'quv ishlariga mo'lajallangan, nashrli va boshqa yo'nalishli bo'lishi mumkin.

Muammoli-mavzuli yo'nalishga ko'ra - ekologik va tabiatdan foydalanish maqsadlari uchun, ijtimoiy-iqtisodiy, er kadastriga oid, geologik, muxandislik inshootlari va shahar ho'jaligi, favqulodda vaziyatlar, navigatsion, transport, savdo-marketing, arxeologik va boshqa yo'nalishlilarga ajratiladi.

Qamrab olgan hududiga qarab - global, umummilliy, regional, lokal, sohalar miqyosidagi GATlarga bo'linadi. Geografik ma'lumotlarni tashkil etish usuliga qarab - vektorli, rastrli, vektor-rastrli yoki uch o'lchamli GATlar bo'lishi mumkin.

Har bir amaliy sohalarda o`ziga xos maxsus talablar, iboralar mavjud, lekin GAT boshqa axborot tizimlaridan farqli ravishda fazoviy geografik xususiyatli axborotlar bilan ishlaydi.

Bugungi kunda yurtimizda atrof muhitni muhofaza qilish uchun geografik axborot tizimining o`rni beqiyosdir, bu tizim orqali atrof muhitni muhofaza etish ma'lumotlar bazasini tashkil qilish va ularni yangilanib borishi, to`ldirilishi kartografik modellarni yaratishda geografik axborot GAT tizimi orqali amalga oshirilmoqda.



2-shakl. GAT uchun dastlabki ma'lumotlar

Hozirgi vaqtida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ekologik va atrof muhitni muxofazasiga mo'ljallangan xaritalarini loyihalash va tuzishda ArsGIS maxsus dastur yordamida bajariladigan ishlar bosqichlarini quyidagicha ta'riflash mumkin: dastlabki ma'lumotlarni to'plash, EHM xotirasiga ma'lumotlarni kiritish va tashqi vositalarda saqlash, ma'lumotlarni qayta ishslash, shartli belgilar tanlash va ularni yaratish, belgilar bankini hosil qilish, ularning tizimini va mavzuli xaritalar qatlamlarini hosil qilish va ularni joylashtirish, tuzilgan xaritalarda muharrirlik ishlari olib borildi.

Ma'lumotlar bazasini tashkil etishda zarur manbalar kompyuter xotirasiga kiritiladi.

2.3. GAT ma'lumotlar bazasini yaratishda sodir bo'ladigan xatoliklarning oldini olish usullari.


Ma'lumotlarni kiritishning muhim bosqichi kiritilgan ma'lumotlarni tekshirish va taxrir qilish. Hatolarni yoqotish yo'llari birorta yozuvni yoki ma'lumotlarni umuman o'chirishdan iborat. Demak, ma'lumotlar kiritish paytida hatolar vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik lozim va chiziqlar va maydonlarni diqqat bilan kiritilishga e'tibor berilishi lozim.

Ma'lumotlarni kiritish paytida ekranda hosil bo'lgan tasvirni diqqat bilan kuzatish maqsadga muvofiqdir. Ohirigacha chizilmagan chiziq yoki ochiq qolgan maydon xato borligini bildiradi.

Noto'g'ri parametrlarni o'rnatish natijasida ham hatolar vujudga kelishi mumkin va shunday xatolarni sistematik tabiat, ya'ni bir xil miqdor yoki tartibda takrorlanishi tufayli aniqlash va to'g'irilash osondir. Shunday xatolarni tasvirning shakli buzilishi, misol uchun, masshtab noto'g'ri belgilanishi natijasida birorta yo'nalishda shaklni cho'zilib yoki kichrayib ketishi orqali aniqlash mumkin.

Tasodifiy hatolar esa texnikaviy vositaning yoki dasturning xatosi oqibatidir va shunda ayrim hosil bo'lgan va tez-tez uchrab turadigan xatolar rasmida ko'rsatilgan **(1-chizma)**. Ko'rinish turibdiki, haqiqiy koordinatalar o'rniga 0 yoki juda katta miqdordagi ko'rsatkich kompyutering dasturi yoki vositasi xatosi tufayli kiritilsa shunday vaziyat hosil bo'ladi. Ikki marta chiziq yoki nuqta taqqoslanib kiritilsa, chiziq ohirigacha yetkazilmasa, nuqtalar birlashtirilmay qoldirilsa, paydo bo'lgan xato operatorning xatosidir va ishni qayta bajarish lozimdir.

Xaritaning topologiyasi chiziqlarni birlashtirishini, ayrim shakllarni barpo etish va nuqtalarni maydonlar ichida joylashtirishini bildiradi. Dasturlar shunday ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan va bir biriga yaqin bo'lgan nuqtalarni avtomatik yo'l bilan birlashtirishga harakat qiladi.



1-chizma. Tasodifyi xatolar va texnikaviy vositaning yoki dasturning xatosi oqibati Haqiqiy va xato bilan o'tkazilgan chiziqlar orasidagi tizimning dasturi yaratgan kichik xato poligonlar.

Ma'lumotlar aniqligi deb ularning fazoviy joylashishining aniqligini tushunish kerak, ya'ni xaritadagi ob'ektning joylashishi haqiqiy joylashishiga nisbatan tekshiriladi. Raqamli tarzga aylantirilgan xaritada albatta "eng aniq xaritaga" nisbatan hatolar mavjud. Tuzilayotgan xaritaga nisbatan aniqligi yuqori bo'lgan xarita yoki dalada yuqori aniqlikdagi olingan ma'lumotlar bilan solishtirish yo'li bilan fazoviy joylashish hatosini aniqlash mumkin.

Shunday tekshirishlar va to'g'rlashlarni avtomatik ravishda bajarish imkonibor, chunki ma'lumotlar komp'yutering ma'lumotlar bazasiga kiritilgan va geografik axborotni idora qiluvchi tizim shunday ishlarni bajarib bera oladi.

Albatta xaritaning muhim bo'lgan matematik elementlari to'g'ri belgilangan holda komp'yuterga kiritilish kerak. Raqamli xaritaning aniqligi va sifati uni yaratish uchun manbaa sifatida ishlatilgan xaritaning masshtabi va proektsiyasiga, maz'muning tuzilish asoslariga bog'lik holda bo'lgani tufayli undan yaxshiroq bo'la olmaydi. Xaritadagi elementlarni raqamli tarzga aylantirishda nuqtalar orasidagi masofa joydagi 10 metrdagi masofadan kam bo'lmasa, shunday xaritadagi ma'lumotlardan foydalanib aniqligi yuqoriroq bo'lgan xaritalar bilan solishtirish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Demak raqamli xaritalarda qog'ozda chop etilgan xaritalardagi hatolarga o'xshash xatolar mavjud, va ularning taqsimlanish tabiatini va qonunlari bor. Raqamli xaritaning shu sababli imkoniyat va sifatlarini to'g'ri tasavvur qilingani maqsadga muvofiq.

Tez-tez uchrab turadigan xatolarning misollari: geografik ma'noga ega bo'limgan kichik poligonlar, «osilib turgan» nuqtalar, ohirigacha olib borilmagan chiziqlar. Shunday xatolarni aniqlab, ularni darhol tuzatish kerak.

Hatolarning tabiatini bir necha guruhga bo'linadi:

operatorning hatolari;

dasturlashning xususiy hatolari

Hatolarni kanday kilib topish mumkin? Tajriba shuni ko'rsatadi, raqamli tarzga aylantirishda oddiy shartlarga ko'ra ish olib borilsa, hatolarning oldini olish mumkin, ya'ni:

poligonga rang berish;

printerdan chiqarib manba bilan solishtirish;

hamma bor yozuvlarning poligonlarga va chiziqlarga mos kelishini tekshirish.

Aniqlik va to'g'rilikni aniqlash yo'llari quyidagilar:

ob'ektlarning joylashishi yoki boshqacha aytganda ularning koordinatalari yuqori aniqlikka ega bo'lgan xarita bilan yoki GPS kuzatishlar natijalari bilan taqqoslash yo'li bilan tekshiriladi;

atributlarinng to'g'riliqini, ya'ni tegishli ob'ektlarga mosligini tekshirish yo'li bilan aniqlanadi. Ma'lumotlar bazasida tekshirishni avtomatik ravishda ham bajarish mumkin;

man'baning masshtabi ma'lumotlarning aniqligiga ta'sir kiladi. Kartografik tasvir umumlashtirilgan tabiatga ega bo'lgani sababli ob'ektlarning joylashishi va klassifikatsiyasi aniqlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Agarki mayda masshtabli man'badan foydalanilgan bo'lsa, hosil bo'lgan raqamli ma'lumotlarni yirik masshtabli xarita bilan solishtirish noto'ri.

Ko'p hatolarning vujudga kelishining sababi raqamli tarzga aylantirish usullar va jarayonlardan noto'ri foydalanilgandan kelib chiqadi. Ayrim hatolar ma'lumotlarning qayta ishlash, saqlash, idora qilish va taxlil qilish paytida oshib boradi.

ma'lumotlar aniqligi deb xisoblangan ko'rsatkichlarining haqiqiy ko'rsatgichlarga yaqinligi. Fazoviy ma'lumotlar ko'pincha umumlashtirilgan va shu

sababli ularning haqiqiy ko'rsatkichlarini aniklash oson emas. Amaliyotda kuzatilgan yoki o'lchanigan ko'rsatkichlar haqiqiy deb faraz qilinadi. Misol uchun, raqamli ma'lumotlarga ko'ra poligonning chegarasi uzunligini hisoblash vazifasida aniqlikni tekshirish maqsadida ushbu ko'rsatkich man'ba xaritadagi hisoblangan chegarasi bilan solishitiriladi. SHunday chegaralarni dalada tekshirish imkoniy yo'k, chunki ular haqiqatda yo'q. SHundan kelib chiqadiki, ma'lumotlar bazaning aniqligi va undagi ma'lumotlar asosida xisoblangan natijalar anikligi bir xil bo'lmaydi.

Joylashish aniqligi ob'ekt joylashish to'g'risidagi axborotini hakikiy koordinatalarga mosligini bildiradi. Misol uchun, xaritada ob'ektlar 0.5 mm aniqligi bilan ko'rsatiladi va joyda agar 1:25000 masshtabdagi xaritadan foydalanilgan bo'lsa bu 12,5 metrga to'g'ri keladi, agar 1:250000 masshtabdagi xaritadan foydalanilgan bo'lsa bu 125 metrga to'g'ri keladi. Ma'lumotlar bazasida 1:25000 masshtabadgi xaritalardan olingan ma'lumotlar shartli aniqligi 0,01, 0,01, 0,001 ga teng deb xisoblasa bo'ladi. Joylashish aniqligini qanday qilib tekshirsa bo'ladi? Yuqori aniqlikka ega bo'lgan man'badan foydalanish kerak va ular yirikroq masshtabdagi xarita;

Xaritani raqamli tarzga aylantirish usullariga ko'ra hatolarning bir necha turi mavjud:

hato hakikiy chiziq va uning raqamli tarzga aylantirilgan chizig'i solishtirish yo'li bilan hisoblanadi;

registratsiya hatosi va kontrol nuqtalar joylashish hatosi ma'lumotlar bazasi aniqligiga katta ta'sir ko'rsatadi;

koordinatalarni qayta ishslash natijasida hatolar paydo bo'ladi;

atributlardagi hatolar daladagi ko'zatishlar va ularni qayta ishslash natijasida vujudga keladi, lekin hamisha qayta ishslash natijalarni dalada tekshirib bo'lmaydi. Aerosuratdan olingan ma'lumotlar ham hato bilan bo'lishi mumkin.

Xaritani yaratish jarayoni shunday hatolarga olib keladi:

mazmun va ko'rsatkichlar umumlashtiriladi;

chiziqlar to'g'rila bilan chiziladi va elementlar joyini o'zgartiradi. Misol uchun, temir yo'l bilan ustma-ust tushmasligi uchun ko'pincha avtomobil yo'lning joyi o'zgartiriladi.

2.4. Ma'lumotlar bazasini boshqarishda geografik axborot tizimining o'rni.

Foydalanimadigan ma'lumotlarning eng muhim belgisi – bu uning raqamli yoki raqamsiz shaklda olinganligi, u yoki bu shakllarda olingan ma'lumotlarning saqlanishi va foydalanimishi, GATning raqamli muhitga ushbu ma'lumotlarni kiritish aniqligi va qiymati, yangiligi nimaga bog'liqligi va hokazolardir.

Ma'lumotlar bazasining mavzuli tarkibini shakllantirish uchun birlamchi ma'lumotlar manbalari sifatida geografik xaritalardan foydalinish qator sabablarga ko'ra qulay va samaralidir. Xaritadan olingan ma'lumotlar quyidagi afzalliklarga ega:

- aniq hududiy bog'lanishga ega ;
- istalgan shaklda axborotlarni kompyuterda saqlash uchun mumkinlik darajasiga ega.

Kartografik manbalar juda ko'pligi va turli-tumanligi bilan farqlanadi. Umumgeografik va topografik xaritalardan tashqari o'nlab va hatto yuzlab tipdagi turli mavzuli xaritalar mavjud. Xaritalar, seriyalar va majmuaviy atlaslarning rolini alohida qayd qilish zarur, chunki bu yerda ma'lumotlar bir xillikda, tizimlashtirilgan, o'zaro kelishilgan shaklda keltiriladi. Bunday xaritalar to'plamlari ayniqsa mavzuli ma'lumotlar bazasini yaratishda muhimdir.

Shu sababli bugungi kunda amalda qo'llanilayotgan va foydalanimadigan GATlarning ko'pchiligi o'lchash natijalarini ishlab chiqishga va ularni tahlil qilishga mo'ljallangan.

GAT bilan ishlayotganda kompyuter ekranida bir yoki bir nechta Sizni qiziqtirgan kartani (yoki plan-sxemani) ko'rishingiz mumkin. Ish jarayonida tasvirning detallashaganlik darajasini oson o'zgartirish, ayrim elementlarini kichiklashtirish yoki kattalashtirish mumkin. Masalan shaharda biror bir uyni, uning podezdini, atrofidagi obyektlarni ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari ma'lumotlarning mavzuli tarkibi bo'yicha boshqarish ishlarini ham olib borish mumkin, masalan, foydali qazilmalar kartasida ish paytida kerakli bo'limgan ba'zi foydali qazilmalar tasvirlangan xatlarni o'chirib qo'yish; zarur bo'lgan qatlamlarni esa paydo qilish mumkin.

Biror obyektni belgilab u haqida ma'lumot olish mumkin: masalan, binoning narxini, kimga qarashli ekanini, qanday holatda ekanligini, obyektning o'lchamini, shahar asosiy muhandislik tarmoqlariga ulanganligini va h.k. Bu ko'rsatkichlarni kompyuter monitorida bevosita o'lhash ham mumkin.

GAT da maxsus qidiruv tizimi ham mavjud. Talabingizga binoan sizni qiziqtirgan obyektlar ko'rsatkichlari haqida talab shartlari tuziladi va tizimli avtomatik ravishda talabingizga javob qaytariladi. Masalan, maydonning 0,1 ga dan kam bo'limgan va temir yo'l bekatidan 3 km uzoqda joylashgan barcha suv havzalarini, 1 km dan oshmagan masofada joylashgan er uchastkalari ekranda ko'rsatilsin va h.k.

Maxsus vositalar orqali ma'lumotlarni analitik qayta ishlab, qiyin masalalarni ham echish mumkin, ya'ni real borliq modelini hosil qilish. Masalan, truboprovod trassasida ro'y beradigan portlashlarni bashorat qilish; ifloslanishning tarqalish yo'lini tadqiq qilib, tabiiy muhitga etkaziladigan ofatni hisoblash va unga qarab rejalarini belgilash.

Ma'lumotlarni to'plash bilan bir qatorda ularni saqlash va qayta ishlash, ya'ni zaruriy tartibda boshqarish kerak. Buning uchun maxsus dasturiy ta'minot talab qilinadi. GAT ning ko'pgina mavjud dasturiy vositalarida yetarli darajadagi samarali yondashuvlardan foydalilanadi. Bu yondashuvlar asosan ma'lumotlar bazasi (MB) ko'rinishidagi ma'lumotlarni tashkil etishga, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) nomini olgan boshqariladigan dasturiy vositalarga asoslanadi. Ma'lumotlar bazasi deganda, odatda «amaliy dasturlarga bog'liq bo'limgan, ma'lumotlar izohi, saqlanishi va o'zgartirilishini ko'zda tutuvchi, ma'lum bir tartib-qoida asosida tashkil etilgan ma'lumotlar to'plami», ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi deganda esa ma'lumotlar bazasini yaratish, yuritish va foydalanish uchun zarur

bo'ladigan dasturlar hamda til vositalari tushuniladi. Demak, ma'lumotlar bazasini boshqarish uchun maxsus dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zamonaviy MBBT, jumladan GAT dasturiy ta'minotida foydalilanayotgan tizimlar ham ma'lumotlarni talab darajasida tutib turadigan modellarning tiplariga qarab ierarxik, tarmoqli va relyatsion turlarga bo'linadi. Relyatsion tipdagi MBBT fazoviy ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda ularning nisbiy yoki jadvallar ko'rinishidagi tavsiyalarini keltirishga imkon beradi.

MBdag'i ma'lumotlarni o'zgartirishning qulayligi MBBTning til vositalari bilan uzviy bog'liqdir. Bunda MBBT dan foydalanuvchiga katta imkoniyatlar berilgan. Bunday imkoniyatlar GAT ning MB ga fazoviy so'rovlarni kengaytirishga, ushbu holatga moslashtirishga zamin yaratadi.


Ma'lumotlar bazasini boshqarish jarayonida ularni tahlil qilish bloki GATning 3 ta yirik moduli (kiritish, qayta ishlash va chiqarish) ishida muhim bo'lib, u geoaxborot texnologiyasining yadrosi sanaladi. Boshqa barcha operatsiyalar uning asosiy analistik va modellashtirilgan funktsiyalarining servis qismi sifatida e'tirof etilishi mumkin. SHunday qilib, GATda ma'lumotlar bazasini to'g'ri boshqarish ulardan samarali foydalanishga imkon beruvchi MBBTni yaratish bilan uzviy bog'liqdir.

III BOB MUXOFAZA ETILADIGANTABIY HUDUDLAR (METH)

GEOMA'LUMOTLAR BAZASINI LOYIHALASH.

3.1 METH geoma'lumotlar bazasidagi fazoviy ob'yeqtar sinflarini modellashtirish.

Geografik malumotlar bazasidan foydalanuvchi o'zi uchun eng kamida kartalar qatlami yoki kartadagi ma'lum bir xususiyatlar to'plamini oladi. Bunda bu xususiyatlar yakka holda bo'lgan alohida mavzularga tegishli bo'ladi. Xususiyatlar to'plami GATdagi alohida M B jadvaliga kiritiladi. Bunda jadval satrlari obyekt ma'lumotlarini va ustunlar obyektning xususiyatlari yoki atributlarini saqlaydi .



Malumotlar to'plash bosqichlari

Bunday operatsiyalarning mavjudligi GAT MBdan ko'pgina foydalanuvchilar o'z so'rovlарини amalgа oshirishlariga olib keladi. MB BT foydalanuvchilarning istagiga qarab ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Bu o'z navbatida, GATning MBdagi eng muhim afzalliklaridan biridir.

Arc Gis dasturida geofazoviy ma'lumotlar sinfini yaratish va boshqarish uchun Ochiq ma'lumotlar manbalaridan yuklab olingan O'zbekiston Respublikasi hududidagi aloqa yo'llari obyektlarini tartibga solish maqsadida **gis.osm_roads_free_1** sheyp faylida mavjud bo'lgan 217396 ta obyektdan

faqatgina zarur bo'lgan yo'l turlarini tanlab olish va ularni BMI geoma'lumotlar bazasiga alohida **Aloqa yo'llari** fazoviy obyektlar sinfi sifatida eksport qilinishi zarur. Ushbu amalni bajarish uchun birinchi navbatda **gis.osm_roads_free_1** qatlamida mavjud bo'lgan jami 25 hil yo'l turlarini o'rganib chiqish va ularning ichidan asosiyalarini tanlab, ajratib olish talab qilinadi.

Quyida ajratib olinishi kerak bo'lgan yo'l turlari keltirilgan (obyektlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar ingliz tilida saqlanganligi sababli ularning tarjimasi ham keltirilgan):

- Primary – Bosh avtomobil yo'llari
- Secondary – Boshqa avtomobil yo'llari
- Trunk – Avtomagistral

Ushbu yo'l turlarini yangi **Aloqa yo'llari** fazoviy obyektlar sinfi sifatida ajratib olish uchun ArcMap ilovasidagi **Atribut bo'yicha tanlash**


funksiyasidan foydalaniladi. Atribut bo'yicha tanlash – atributiv so'rov yordamida qatlamdagি kerakli obyektlarni tanlash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan usullardan biri bo'lib, Выбрать по атрибуту (Select By Attributes) instrumenti yordamida ishga tushuriladi.

Atribut bo'yicha tanlash funksiyasi bosqichlari

1. Выбрать по атрибуту (Select By Attributes) muloqot oynasini ochish uchun Выборка (Selection) menyusidan Выбрать по атрибуту (Select By Attributes) instrumentiga bosiladi.
2. Tanlov amalga oshirilishi kerak bo'lgan qatlam tanlanadi.




3. Tanlash usuli ko'rsatiladi.



4. Quyidagi usullardan biri yordamida so'rov shakli yaratiladi:

- So'rovni qurish instrumenti yordamida so'rovni yaratish;
 - Tanlov oynasiga so'rovni yozib chiqish;
 - Diskda saqlab qo'yilgan so'rovni yuklash.
5. So'rov qiymatini Проверить (Verify) tugmasini bosish orqali tekshiriladi.
6. So'rovni ishga tushurish va uning natijalari bilan ishlash uchun OK yoki Применить (Apply) tugmasiga bosiladi.
Natijada ArcMap ilovasi belgilangan qatlama ichidagi atribut ma'lumotlaridan aynan bizga kerak bo'ladigan ma'lumotlarnigina tanlab beradi.



1-rasm. Kerakli yo'l turlari tanlab olingandan keying holat.

gis.osm_roads_free_1 sheyp faylidagi asosiy yo'l turlari tanlab olingandan so'ng, tanlangan obyektlarni yangi fazoviy obyektlar sinfi sifatida eksport qilish kerak va unga **Aloqa yo'llari** deb nom beriladi. Natijada yangi fazoviy obyektlar sinfiga 9749 ta obyekt kiritildi.

Таблица


Aloqa_yo'llari

	FID	Shape *	osm_id	code	fclass	name	ref	oneway	max
0	Полилиния	4703428	5113	primary	Muhammad Iqbol ko'chasi		F		
1	Полилиния	20334374	5112	trunk		A-2	F		
2	Полилиния	22778802	5112	trunk	Kazakhstan, South Kazakhstan	A-2	F		
3	Полилиния	22778822	5114	secondary			F		
4	Полилиния	22778824	5114	secondary	Чимкентский тракт	M39	F		
5	Полилиния	22794219	5112	trunk		A-15	B		
6	Полилиния	22794261	5114	secondary		M39	F		
7	Полилиния	22794288	5112	trunk		A-2	F		
8	Полилиния	22794296	5112	trunk	Kazakhstan, South Kazakhstan	A-2	F		
9	Полилиния	22795313	5113	primary	Miletanilik shahz ko'chasi		F		

(0 из 9749 Выбранные)


Aloqa_yo'llari

Quyidagi 2-rasmda *Atribut bo'yicha tanlash* amalga oshirilgandan keyin ajratib olingan asosiy yo'l turlari tasvirlangan.




2-rasm. Asosiy yo'llar qizil rangda keltirilgan.


Buning uchun birinchi navbatda Arc Catalog ilovasini ochamiz ushbu ilovani Arc Map ilovasi ochilgandan so'ng Arc Catalog belgisiga bosamiz va quyidagich oyna ochiladi ushbu oynadan yaratmoqchi bo'lgan bazamizni papkasini topib olamiz va obyektning kartasini yaratishimiz uchun bizga rastr formatdagi kartasini yuklab olamiz va fazoviy obyektlar sinfini yaratishni boshlaymiz



Ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish uchun muxofaza etiladiga hududlar 7-ta qatlam bo'yicha ajratilgan biz ham ushbu qatlamlardan foydalanamiz yaratilga *feature class* fazoviy qatlamiga kiramiz va fazoviy obyektimizga nom beramiz (*METH_turi*) hamda obyekt kartada qanaqanki geometrik shakilda chizilishini tanlaymiz (*polygon features*) keyingisi tugmasini bosamiz




ushbu tugmani bosganimizdan so'ng proyeksiya tanlash oynasi ochiladi bu oynadan (*pulkova_1942_GK_Zone_12N*)ni tanlaymiz



keyingi proyeksiya tanlash oynasini ochamiz ushbu oynadan (*Baltic_1982*) tanlaymiz bu proyeksiyalar tanlashimizda maqsad yaratmoqchi bo'lgan kartamiz yoki malumotlar bazamizni keyinchalik global tarmoqda qo'shmoqchi bo'lsak aynan geografik joylashgan joyiga juda kam xatoliklar bilan ustma-ust tushishi va kartasini tuzish holati yuzaga kelsa ushbu proyeksiyalar asos bo'lib xizmat qiladi.


So'ngra oxirgi amal bajariladi bu amalda atribut jadvallarning birinchi ustunida qanaqanki malumotlar bo'lsa barchasi kiritiladi bu atribut jadval Arc Map ilovasida yuklanganda ustundagi barcha kiritilgan malumotlar qator shakliga avtomatik ravishda dasturni o'zi o'tkazadi. Atribut jadvalga ma'lumot kiritilayotgan vaqtida kiritilish qiymatiga qarab o'ng tomondagi ustundan tanlanadi masalan (*nomi-text, tashkil topgan vaqtি-data, rasmi-rastr*) va hokazo



ketma-ket shakilda qolgan METH qatlamlari ham shu tariqa atribut jadvalga kiritiladi. Arc Catalog ilvasida bajarilgan ishlarni tugatgandan so'ng ikkinchi ilova Arc Map ilovasiga o'tamiz bu ilovada asosiy ishlar bajariladi birinchi bo'lib




ishchi paneldan (*add data*) instrumentini olib catalog ilovasida yaratilgan bazani qidirish ishlari olib boriladi bunda birinchi bo'lib yaratilga papka topiladi (*diplom/Musulmonov Anvar(43b-14gkk)*).




Papka ichidagi malumotlar bazsi (*Baza Uzbekiston*) yana bir papkada saqlanagan bo'ladi ushbu papkani ichida bizga kerakli ilova fayli (*Uzbekiston_METH*) mavjud shaxsiy geo ma'lumotlar bazasi mavjud.


Arc Map ilovasiga yuklab olamiz, oynaning o'ng tomonida turgan qo'shimcha oynadagi barcha belgilangan fazoviy obyektlar sinfi ishchi oynani chap tomoniga o'tadi va oxirida obyektning oldin bajarilgan geometric shakli tasviri kartasi ham yuklanadi.



Barcha amallar bajarilgandan so'ng ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlar kiribib boshlaymiz buning uchun muxarrirlash (*editor*) instrumentidan foydalanamiz




ishchi oynaning o'ng tomonida  (*create features*) qo'shimcha oynasi ochiladi bu oynadan obyektimizni chegarasini va joylashgan joyini ko'rsatish uchun (*mamuriy bo'linish*) fazoviy obyektini tanlagan holda ochiq ma'lumotlar manbalaridan olingan O'zbekiston respublikasining mamuriy bo'linishini ajratib olib polygon shakliga keltiriladi va kategoriyalarga ajratiladi.



Barcha amallar bajarilgandan so'ng ma'lumotlar bazasida 12 ta viloyat va Qoraqalpog'ston respublikasini quyidagicha holat tayyorlandi.



Ishlab chiqarish korxonasidan olingan muxofaza etiladigan tabiiy hududlarni koordinatasiz (*jpg*) farmatida joylashgan o'rni haqidagi ma'lumot orqali muxofaza etiladigan tabiiy hududlarni chegaralari chizib chiqildi.




Xar bir hududni chegaralarini chizib bo'lgach atribut jadvaliga u respublikani qaysi viloyatida joylashganligini va obyektning nomi qisqartirmasini (*abb*)ni kiritib ketiladi, barcha muxofaza etiladigan tabiiy hududlarni chizib chiqgandan so'ng atribut ma'lumotlariga quyidagicha hosil bo'ladi.

Identify	
Identify from: <Top-most layer>	
Location: 151 584.704 -4 591 393.481 Meters	
Field	Value
OBJECTID	484
SHAPE	Polygon ZM
viloyat	<null>
abb	<null>
Майдори	<null>
nomi	<null>
SHAPE_Length	504157.013
SHAPE_Area	8109659264.057882

Identified 1 feature

atributlarga qo'shimcha ravishda Exel jadvaldag'i ma'lumotlarni obyektning atribut jadvaliga biriga-bir holatda qo'shib olamiz ushbu amal quyidagicha bajariladi.



3.2 Jadvallarni ulash va bog'lash

Jadvallarga kiritilgan ma'lumotlar *qiymat* bo'ladi. Geografik MB jadvalining geografik bo'limgan jadvaldan farqi geometrik ustunning mavjudligidadir. Geografik MBda joy va ishlash tezligini oshirish uchun koordinata qiymatlari yuqori kompresslangan (siqilgan) shaklda saqlanishi mumkin Agar bizga 2 ta jadval berilgan bo'lsa, to'liq ma'lumot olish uchun ularni o'zaro birlashtirishimiz mumkin. Demak, MBni o'zaro bog'lash uchun jadvallardan foydalaniladi. Har bir geografik qatlam ma'lumotlari jadvallarga kiritiladi.

Agar qiymatlар bir xil bo'lsa, jadvallarni bir-biri bilan bog'lash mumkin, bunda ustun va satrlardagi qiymatlар umumlashtiriladi, agar aksincha bo'lsa, alohida joylashtiriladi. Bunday birlashtirish bir hudud to'g'risida 2 xil ma'lumot jadvali berilsa, soddallashtirish hamda tushunish oson bo'lishi uchun bajariladi. Yana bir muhim jihat, iloji boricha MBdagi joyni tejab ishlatish zarur. Shu sababli qaytarilayotgan ma'lumotlarni o'chirib tashlashimiz lozim. Bu o'z navbatida,

MBdan so'rovni amalga oshirganda uning tezda amalga oshishini ta'minlaydi. Geografik tilda aytadigan bo'lsak, 2 xil atributlardan yagona atribut ma'lumot hosil qilinadi. Bunday birlashtirish standart MB vositalari yordamida bajariladi.

Demak, jadvallar bir-biri bilan MBning yangi ko'rinishini hosil qilish va ishslash tezligini oshirish uchun amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda geografik MB ko'lami juda kengayib bormoqda. 1970-yillardayoq IBM kompaniyasi mutaxassisi Ted Kodd MB jadvallarining tuzilishini samarali ishlatish uchun bir qancha qonun-qoidalarni ishlab chiqdi. Bunga ko'ra eng mukammal MB oddiy va doimiy jadvallar shaklida bo'lib, ular 5 ta tamoyilga amal qilishi kerak

1. Ustun va qator kesishgan har bir qator ichida faqat bir qiymat bo'lishi kerak.
2. Ustundagi barcha qiymatlar bir subyekt (mavzu)ga tegishli bo'lishi kerak.
3. Har bir qator yagona bo'lishi (qaytarilgan qatorlar bo'lmasligi) kerak.
4. Ustunlarni davom ettirish ahamiyatsiz bo'lishi kerak.
5. Qatorlarni davom ettirish ahamiyatsiz bo'lishi kerak,

